



## YOSHLAR ORASIDA IJTIMOYIY BEFARQLIK VA PSIXOLOGIK XAVFSIZLIKNING O‘ZARO BOG‘LIQLIGI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20009484>

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti,*

*“Amaliy psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi*

**Asraxonova E.A** – dotsent, ps.f.b.f.d (PhD)

*“Amaliy psixologiya” yo‘nalishi talabasi*

**Jonpo‘latova Gulsanam Ibrohim qizi**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada yoshlar orasida ijtimoiy befarqlikning psixologik xavfsizlik tuyg‘usiga ko‘rsatadigan ta‘siri kompleks tarzda tahlil etilgan. Ijtimoiy befarqlik tushunchasi, uning namoyon bo‘lish shakllari hamda psixologik xavfsizlikning asosiy komponentlari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqotda ijtimoiy befarqlik darajasining oshishi psixologik xavfsizlikni pasaytirishga olib kelishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Yoshlarda ushbu ikki hodisaning o‘zaro ta‘siri motivatsion, kognitiv va xulq-atvor nuqtai nazaridan tahlil qilingan. Bundan tashqari, psixologik xavfsizlikni ta‘minlash va ijtimoiy befarqlikni kamaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy befarqlik, psixologik xavfsizlik, yoshlar psixologiyasi, ijtimoiy moslashuv, empatiya, shaxs rivojlanishi, kognitiv distorsiya, prosotsial xulq-atvor.

**Abstract:** This article provides a comprehensive analysis of the influence of social indifference on the sense of psychological safety among youth. The concept of social indifference, its manifestations, and the key components of psychological safety are examined. The study scientifically substantiates that an increase in the level of social indifference leads to a decline in psychological safety. The interrelation between these two phenomena in youth is analyzed from motivational, cognitive, and behavioral perspectives. Furthermore, practical recommendations for ensuring psychological safety and reducing social indifference are proposed.

**Key words:** social indifference, psychological safety, youth psychology, social adaptation, empathy, personal development, cognitive distortion, prosocial behavior.

**Аннотация:** В данной статье комплексно анализируется влияние социального безразличия на чувство психологической безопасности у молодёжи. Рассмотрены понятие социального безразличия, формы его проявления и основные компоненты психологической безопасности. В исследовании научно обоснована взаимосвязь между ростом уровня социального безразличия и снижением психологической безопасности. Взаимодействие этих двух явлений в молодёжной среде



*анализируется с мотивационной, когнитивной и поведенческой точек зрения. Также предложены практические рекомендации по обеспечению психологической безопасности и снижению социального безразличия.*

**Ключевые слова:** *социальное безразличие, психологическая безопасность, психология молодёжи, социальная адаптация, эмпатия, развитие личности, когнитивное искажение, просоциальное поведение.*

## KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamlashtirish, globallashtirish va ijtimoiy o'zgarishlarning jadal kechishi yoshlar hayotiga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonlar bir tomondan insonlar o'rtasidagi muloqot imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan aloqalarning sirtqi, hissiyotsiz va mas'uliyatsiz tarzda amalga oshirilishiga zamin yaratmoqda. Ijtimoiy befarqlik – boshqalarning muammolari, ehtiyojlari va his-tuyg'ulariga loqayd munosabat – bugungi yoshlar o'rtasida tobora keng tarqalayotgan hodisaga aylanmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, psixologik xavfsizlik insonning ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlanishining asosiy sharti hisoblanadi. Shaxs o'zini xavfsiz his qilgandagina o'z fikrlarini erkin ifoda etadi, ijodiy faoliyat ko'rsatadi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etadi. Aksincha, ijtimoiy befarqlik muhiti shaxsning psixologik xavfsizlik tuyg'usini inkor etadi va bu o'z navbatida yosh avlodning shaxsiy hamda ijtimoiy kamolotiga jiddiy zarar yetkazadi.

Tadqiqotning obyekt – yoshlar ijtimoiy xulq-atvori va psixologik xavfsizlik tuyg'usi o'rtasidagi o'zaro munosabat jarayoni. Predmeti esa

ijtimoiy befarqlikning psixologik xavfsizlikka ta'siri mexanizmlari va ularning namoyon bo'lish shakllaridir. Tadqiqotning maqsadi – yoshlarda ijtimoiy befarqlik va psixologik xavfsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda tahlil qilish hamda bu muammoni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Psixologik xavfsizlik muammosi Abraham Maslou, Karl Rojers va Erik Erikson kabi olimlarning asarlarida ilk bor sistemali tarzda ko'rib chiqilgan. Maslou ehtiyojlar ierarxiyasida xavfsizlik ehtiyojini fiziologik ehtiyojlardan keyingi ikkinchi daraja sifatida belgilagan va uni insonning to'laqonli rivojlanishi uchun zaruriy shart deb ta'riflagan. Rojers esa shaxsning o'zini qabul qilishi va boshqalar tomonidan qabul qilinishi psixologik xavfsizlikning poydevori ekanini ta'kidlagan.

Ijtimoiy befarqlik hodisasini ilk bor sistemali o'rganish 1964-yilda Kitti Jenoviz fojiasidan so'ng boshlangan. Bu voqeda o'nlab guvohlar yosh ayolning o'ldirilishiga befarq qarab turgan. Bibb Latane va John Darley ushbu hodisani o'rganib, "ko'pchilik effekti" nazariyasini ishlab chiqqan va ko'pchilik odamlar



qatnashganda javobgarlik hissi suyulishini ilmiy jihatdan isbotlagan.[4]

Zamonaviy tadqiqotlarda Amy Edmondson psixologik xavfsizlikni 'xavfsizlik zonasi' tushunchasi orqali izohlab, bu holat odamlar xato qilishdan, muloqotga kirishishdan yoki riskka borishdan qo'rqmaydigan muhitni anglatishini ko'rsatgan.[1]

Martin Seligman ijtimoiy ajralish va yolg'izlikning yosh insonlarning psixologik salomatligiga salbiy ta'siri haqida keng tadqiqotlar o'tkazgan. Uning pozitiv psixologiya yo'nalishi doirasidagi ishlari shaxsning ijtimoiy aloqalar orqali psixologik barqarorlikni oshirishi mumkinligini ko'rsatgan. Viktor Frankl esa ma'no izlash va ijtimoiy mas'uliyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganib, befarqlikning asosida ko'pincha ma'no yo'qolishi yotishini ta'kidlagan.[3]

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot nazariy-tahliliy usullar asosida olib borilgan. Ijtimoiy befarqlik va psixologik xavfsizlik mavzusidagi xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilingan, solishtirish va umumlashtirish metodlari qo'llangan. Psixologik nazariyalar, jumladan, Maslou ehtiyojlar ierarxiyasi, Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi, Edmondsonning psixologik xavfsizlik modeli va Latane hamda Darleyning ko'pchilik effekti nazariyasi asosiy metodologik asos sifatida xizmat qilgan.

Tahlil va natijalar:

1. Ijtimoiy befarqlik: tushuncha va namoyon bo'lish shakllari

Ijtimoiy befarqlik – bu insonning atrofdagi kishilar, ijtimoiy hodisalar va muammolarga nisbatan his-tuyg'usiz, loqayd munosabati bo'lib, u passiv xulq-atvor, empatiyaning yo'qligi va ijtimoiy mas'uliyatning susayishi bilan tavsiflanadi. Bu hodisani faqat shaxsiy xususiyat sifatida emas, balki ijtimoiy muhit, tarbiya va axborot maydoni tomonidan shakllantiriladigan murakkab psixologik holat sifatida ko'rish lozim.

Yoshlar orasida ijtimoiy befarqlik bir necha shakllarda namoyon bo'ladi. Birinchidan, kognitiv befarqlik – atrofdagi ijtimoiy muammolarni o'ziga tegishli deb qabul qilmaslik, boshqalarga nisbatan 'bu mening muammom emas' degan yondashuv. Ikkinchidan, emotsional befarqlik – boshqalarning qayg'u va sevinchlariga nisbatan hissiyotsiz munosabat. Uchinchidan, xulq-atvor befarqligi – muhtoj insonlarga yordam bermaslik, fuqarolik javobgarligidan yuz o'girish va ijtimoiy faollikdan chetlashish. Raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan yana bir shakl – virtual befarqlik – paydo bo'lgan bo'lib, unda insonlar ijtimoiy tarmoqlarda boshqalarning muammolarini ko'rib, 'layk' bosib o'tib ketaveradi, ammo haqiqiy yordam ko'rsatmaydi.

2. Psixologik xavfsizlik: mohiyat va komponentlar

Psixologik xavfsizlik – shaxsning o'zini xatardan, tahdiddan va zarardan himoyalangan his qilishi bilan bog'liq subyektiv holat bo'lib, u jismoniy, ijtimoiy va emotsional o'lchamlarni o'z ichiga oladi. Edmondson ta'rifiga ko'ra,



psixologik xavfsizlik – bu odamlar o‘z fikrini, muammolarini va savollarini ochiq ayta oladigan, buning evaziga jazolanishdan qo‘rqmaydigan muhitdir.

Yoshlar orasida psixologik xavfsizlikning asosiy komponentlari quyidagilardan iborat: Qabul qilinganlik hissi – o‘zini jamiyat va guruh tomonidan tan olingan his etish; Ishonch – atrofdagi kishilarga, institutlarga va tizimga ishonch; Nazorat hissi o‘z hayotining asosiy jihatlarini nazorat qila olishga bo‘lgan ishonch; Ijtimoiy mansublik – biron-bir ijtimoiy guruhga tegishli bo‘lish va unda o‘z o‘rnini his etish; Emotsional qabul qilinish – his-tuyg‘ularini erkin ifoda etish huquqiga egalik hissi.

3. Ijtimoiy befarqlik va psixologik xavfsizlik: o‘zaro ta’sir mexanizmlari

Ijtimoiy befarqlik va psixologik xavfsizlik bir-biriga teskari yo‘nalishda ta’sir ko‘rsatadi. Ijtimoiy befarqlik kuchaygan muhitda psixologik xavfsizlik pasayadi, chunki insonning atrofidagi befarqlik uni yolg‘iz, qabul qilinmagan va qo‘llab-quvvatlanmagan his etishiga olib keladi. Bu o‘zaro ta’sirni uchta mexanizm orqali tushuntirish mumkin.

Birinchi mexanizm – ijtimoiy izolyatsiya zanjiri. Atrofdagi befarqlikni his etgan yosh inson o‘z muammolarini boshqalar bilan baham ko‘rishdan bosh tortadi, o‘ziga o‘zi yopiladi va natijada ijtimoiy aloqalar uziladi. Bu jarayon psixologik xavfsizlikning eng muhim komponenti – qabul qilinganlik hissini barbod etadi.

Ikkinchi mexanizm – ishonchsizlikning kuchayishi.

Boshqalarning befarqligini muntazam kuzatib borgan yosh inson asta-sekin atrofdagilarga, ijtimoiy institutlarga va tizimga bo‘lgan ishonchini yo‘qotadi. Bu esa psixologik xavfsizlikning «ishonch» komponentini zaiflashtiradi va shaxsni doimiy hushyorlik va himoyalani holatida yashashga majbur etadi.

Uchinchi mexanizm – o‘rganilgan ojizlik. Martin Seligman tomonidan tadqiq etilgan bu holat shundaki, o‘z muammolari bilan befarq muhitda qolgan yosh inson vaqt o‘tishi bilan “baribir hech kim yordam bermaydi” degan xulosaga keladi va o‘z-o‘ziga yordam izlashdan ham to‘xtaydi. Bu holat psixologik xavfsizlikning “nazorat hissi” komponentini tamoman yo‘q qiladi.[2]

4. Raqamli muhitning ta’siri

Zamonaviy raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar ijtimoiy befarqlikning yangi shakllarini vujudga keltirmoqda. “Skrolling” madaniyati – ekranda tezda o‘tib ketish odati – yoshlarni boshqalarning og‘riq va quvonchlariga g‘ayri-shuuran loqayd bo‘lib qolishga o‘rgatmoqda. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, ijtimoiy tarmoqlarda ko‘proq vaqt o‘tkazadigan yoshlar empatiyaning pasayishi va haqiqiy hayotiy muloqotdan yuz o‘girishni boshdan kechirishi ehtimoli yuqori.

Ayni paytda, raqamli muhit psixologik xavfsizlik uchun ikki tomonlama xavf tug‘diradi: bir tomondan, u yolg‘izlik va izolyatsiya hissini kuchaytiradi; ikkinchi tomondan, kiberbulling va onlayn ta’qib orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri psixologik xavfsizlikni



buzadi. Tadqiqotlar 14-24 yoshdagi yoshlarning 40 foizdan ziyodi onlayn muhitda o'zini xavfsiz his etmasligini ko'rsatadi.

5. Oilaviy muhit va ijtimoiy befarqlikning shakllanishi

Ijtimoiy befarqlik ko'p hollarda bolalik va o'smirlilik davrida shakllanadi. Ota-onalarning o'z farzandlariga nisbatan emotsional befarqligi, e'tiborsizlik va hissiy izolyatsiya bolada kelajakdagi ijtimoiy befarqlikning poydevorini qo'yishi mumkin. John Bowlby ning bog'lanish nazariyasiga ko'ra, erta bolalik davrida qo'llab-quvvatlovchi va mehribon munosabatlarni his etmagan bolalar keyinchalik boshqalarga empatiya ko'rsatish qobiliyatini to'liq rivojlantira olmaydi.

O'zbek jamiyati kontekstida katta avlod ta'sirining maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasiga ta'siri to'g'risidagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oiladagi iliq muhit va milliy qadriyatlar asosidagi tarbiya yoshlarning ijtimoiy mas'uliyat hissini mustahkamlaydi hamda psixologik xavfsizlik sezgisini kuchaytiradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy befarqlik va psixologik xavfsizlik o'rtasida o'zaro teskari bog'liqlik mavjud: befarqlik darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, psixologik xavfsizlik tuyg'usi shunchalik zaiflashtadi. Bu muammo yoshlar uchun ayniqsa dolzarb bo'lib, ular shaxsiyat shakllanishi, ijtimoiy identifikatsiya va hayotiy mo'ljallarni belgilash bosqichida

bo'lganliklari sababli befarqlik muhitiga nisbatan o'ta sezgirdirlar.

Muammoni hal etish uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi. Birinchidan, ta'lim muassasalarida empatiya rivojlantiruvchi dasturlarni joriy etish zarur: o'quvchilar va talabalar o'rtasida psixologik xavfsizlik muhitini yaratadigan interaktiv darslar, guruhiy loyihalar va ijtimoiy xizmat faoliyatini tashkil etish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, oila muhitini mustahkamlash maqsadida ota-onalar uchun emotsional kompetentlik bo'yicha treninglar o'tkazish va psixologik maslahat xizmatlarini kengaytirish lozim. Uchinchidan, raqamli savod va raqamli empatiya o'qitish – yoshlarda onlayn muhitda ham mas'uliyatli va empatik munosabatni shakllantirish – bugungi kunda muhim vazifaga aylanib bormoqda. To'rtinchidan, mahalla va jamoat tashkilotlari darajasida yoshlarni ijtimoiy faollikka jalb etuvchi dasturlar ishlab chiqish ijtimoiy befarqlikning oldini olishning samarali yo'li hisoblanadi.

Umuman olganda, ijtimoiy befarqlik – bu shaxsiy muammo emas, balki ijtimoiy va tarbiyaviy muhit tomonidan shakllanadigan holat. Shu sababli unga qarshi kurash ham individual, ham jamiyat miqyosida kompleks chora-tadbirlarni talab etadi. Psixologik xavfsizlikni ta'minlash esa yosh avlodning barkamol, ijtimoiy mas'uliyatli va ruhiy sog'lom shaxs sifatida shakllanishining garovidir.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Edmondson, A. C. (2018). *The Fearless Organization: Creating Psychological Safety in the Workplace for Learning, Innovation, and Growth*. Hoboken, NJ: John Wiley & Sons.
2. Seligman, M. E. P. (2011). *Flourish: A Visionary New Understanding of Happiness and Well-being*. New York: Free Press (Simon & Schuster).
3. Frankl, V. E. (2006). *Man’s Search for Meaning*. Boston: Beacon Press. (Original work published 1946)
4. Malone, J. C., Liu, S. R., Vaillant, G. E., Rentz, D. M., & Waldinger, R. J. (2016). Midlife Eriksonian psychosocial development: Setting the stage for late-life cognitive and emotional health. *Developmental Psychology*.
5. Fischer, P., Krueger, J. I., Greitemeyer, T., Vogrincic, C., Kastenmüller, A., Frey, D., Heene, M., Wicher, M., & Kainbacher, M. (2011). The bystander-effect: A meta-analytic review on bystander intervention in dangerous and non-dangerous emergencies.